



TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI
MILLIY MALAKA TIZIMINI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

TARMOQ MALAKA RAMKASINI ISHLAB CHIQISH VA YANGILASH METODOLOGIYASI



2025

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI

MILLIY MALAKA TIZIMINI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

**TARMOQ MALAKA RAMKASINI
ISHLAB CHIQISH VA YANGILASH
METODOLOGIYASI**

Toshkent – 2025

Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi.
– Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti. 2025, 20 bet.

Mazkur metodologiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktyabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini sifatli ta'minlash, shuningdek, tarmoq malaka ramkalarini ishlab chiqish, yangilash, ekspertizadan o'tkazish va joriy etish maqsadida ishlab chiqilgan.

Metodologiya Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining Ilmiy kengashida 2025-yil 18-sentyabrdagi 9-sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan.



MUNDARIJA

1-bob	Umumiy qoidalar	6
2-bob	Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqishning maqsadi, tamoyillari va ahamiyati	9
3-bob	Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish tartibi	10
4-bob	Tarmoq malaka ramkasini rasmiylashtirish	16
5-bob	Yakunlovchi qism	17
	Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish sxemasi	18
	Tarmoq malaka ramkasi shakli	19

UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu metodologiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-345-son qarori va Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi 369-son qarorlariga muvofiq, tarmoq malaka ramkalarini ishlab chiqish, yangilash, ekspertizadan o'tkazish va joriy etish tartibini belgilaydi.

2. Metodologiyada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Milliy malaka tizimi – kasbiy malakalar bo'yicha mehnat bozori talabi hamda ta'lim tizimi (jumladan, norasmiy va informal ta'lim) taklifini muvofiqlashtiruvchi hamda tartibga soluvchi huquqiy va institutsional vositalar va mexanizmlar majmui;

Milliy malakalar ramkasi – tarmoqlar malakalar ramkalari, kasb va ta'lim standartlari, milliy va xalqaro darajada malakalarni tan olishning kasbiy ta'limning barcha darajalari uchun yagona mexanizmlarni nazarda tutuvchi, malakalarni tarmoqlararo va xalqaro taqqoslashni ta'minlovchi kompetensiyani baholash tizimi, kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimining institutsional komponenti va asosi;

Tarmoq malaka ramkasi – Milliy malaka ramkasi, mashg'ulotlar, lavozimlar va kasblar klassifikatorlari asosida ishlab chiqiladigan hamda kasbga qo'yiladigan malaka talablarini bajariladigan ishning murakkabligi, tarmoqda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar xususiyatiga qarab darajalarga ajratuvchi tasniflagich;

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mas'uliyat va mustaqillik – xodimning umumiy kompetensiyasini belgilab, rahbarlik ostidagi faoliyat, mustaqil ijro intizomi, rahbarlik faoliyati, faoliyat ko'lam (vakolat va mas'uliyatning kengligi, javobgarlik, kasbiy faoliyatdagi ehtimoliy xatoning oqibatlari) bilan ifodalanadigan ko'rsatkich;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

malaka – tegishli hujjat bilan tasdiqlanuvchi bilim, ko'nikma

va kompetensiyalar majmuasi bo'lib, shaxsning muayyan kasbiy faoliyat turini bajarishga tayyorligini aks ettiradi;

funksional xarita – tarmoq kesimidagi barcha kasb va malakalarni darajalar bo'yicha tizimli va iyerarxik shaklda ifodalovchi tuzilma.

kasbiy standart – kasbiy faoliyatning muayyan sohasida zarur bilim, mahorat, ko'nikma, ish staji, malaka darajasi, mehnatning mazmuni, sifati va shart-sharoitlari, ishga munosabat va xulq-atvorga qo'yilgan minimal talablarni belgilaydigan hujjat

kompetensiya – bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmui;

kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda namoyon bo'ladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

kasbiy faoliyat turi – xususiyati, natijalari va mehnat sharoitlari bir-biriga yaqin bo'lgan mehnat vazifalarining majmuasi. Kasbiy faoliyat turi kasbiy standartlarni ishlab chiqishda qo'llanilib, aniq mehnat vazifalari hamda malaka talablarini tavsiflash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

ishchi guruh a'zosi – tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqishda ishtirok etuvchi shaxs;

malaka darajasi – xodim yoki ishga (kasbga) talabgorning tayyorgarligi va ko'nikmalari darajasi bo'yicha mehnat funksiyalarining murakkabligi, ularni mustaqil bajarish va natijalarga mas'uliyati parametrlari bo'yicha belgilanadigan toifalangan talablar majmuasi;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

rasmiy ta'lim – davlat tomonidan tan olingan davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari ishtirokidagi institutsionallashtirilgan, aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejali ta'lim;

guruh – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT (2.1-tahrir) bo'yicha iqtisodiy faoliyatning keng sohasini o'z ichiga olgan faoliyat turi;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning o'rtacha darajada (tor doirada) aniqlangan turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

kichik sinf – sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini ifodalovchi faoliyat turi.

3. Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashi (keyingi o'rinlarda – Respublika kengashi) Tarmoq malaka ramkasi (keyingi o'rinlarda – TMR) shakli va metodologiyasini tasdiqlaydi.

Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligining Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti (keyingi o'rinlarda – Institut) Respublika kengashining ishchi organi hisoblanadi va TMR ishlab chiqilishi bo'yicha umumiy nazoratni amalga oshirish, ularni ekspertizadan o'tkazish va joriy etish bo'yicha ishlarni bevosita muvofiqlashtiradi.

4. TMR Milliy malakalar ramkasi (keyingi o'rinlarda – MMR) asosida ishlab chiqiladi.

5. TMR kasbiy standartlar va ta'lim dasturlarini ishlab chiqishga hamda ular bilan birgalikda ta'limning barcha darajalari uchun malakalarga erishish va tan olish mexanizmlarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

6. Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashlari (keyingi o'rinlarda – Tarmoq kengashi), mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi xodimlar, ish beruvchilar, ish izlovchilar va ta'lim tashkilotlari TMRni ishlab chiqish hamda uni takomillashtirishdan manfaatdor tomonlar hisoblanadi. Shu bilan birga, kasaba uyushmalari, kasbiy assotsiatsiyalar, nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat tashkilotlari, yoshlar va ayollar tashkilotlari ham jarayonda ishtirok etuvchi manfaatdor tomonlar sifatida jalb etilishi mumkin.

7. Tarmoq kengashlari TMR loyihasini ishlab chiqish jarayonlarini tashkil etadi va muvofiqlashtiradi.

TMRda keltirilgan barcha ma'lumotlarning to'g'riligi va ularni amaliyotda qo'llash bilan bog'liq har qanday javobgarlik mazkur hujjatni ishlab chiqqan va tasdiqlagan Tarmoq kengashlari zimmasiga yuklanadi.

TMRni ishlab chiqish jarayoni tarmoq kengashlari va Institut tomonidan muntazam ravishda monitoring qilib boriladi.

8. TMR shakliga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish Respublika kengashi qarori asosida amalga oshiriladi.

9. Metodologiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish Respublika kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrda PQ-345-son qarorida belgilangan MMRga asosan, TMRni ishlab chiqishda kasbiy faoliyat sohalari va kasblar uchun malaka darajalariga mos bilim, ko'nikma, mas'uliyat va mustaqillikni aniq va uyg'un bayon etiladi.

TARMOQ MALAKA RAMKASINI ISHLAB CHIQUISHNING MAQSADI, TAMOYILLARI VA AHAMIYATI

11. TMRning maqsadi–sohani rivojlantirish strategiyasini hisobga olgan holda, mavjud kasbiy faoliyat turlari bo'yicha bilim, ko'nikma va mas'uliyat va mustaqilliklarni shakllantirish, kasb va lavozimlarni malaka darajalariga muvofiq tartiblashtirish hamda turdosh faoliyat turlari orqali tarmoqlararo o'zaro bog'liqlikni ko'rsatishdan iborat. Shu bilan birga, TMR ta'lim dasturlari bilan uyg'unlikni ta'minlaydi, kasbiy malakalarga erishish mexanizmlarini belgilaydi, shaxsiy va kasbiy karyera trayektoriyalarini shakllantirish imkonini yaratadi hamda inklyuzivlik tamoyili asosida yoshlar, ayollar va nogironligi bo'lgan shaxslarning malaka tizimida to'laqonli ishtirokini ta'minlaydi.

12. TMR quyidagi tamoyillarga asoslanib ishlab chiqiladi:

a) tarmoqning IFUTdagi o'zaro bog'liq bo'lgan guruhlar, sinflar va kichik sinflarga mutanosibligi;

b) amaliy tajribani hisobga olgan holda, quyi malaka darajasidan yuqori malaka darajasiga o'tish jarayonida xodimlarning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalari, ko'nikmalari, malakalari hamda bilimlari uzluksizligini ta'minlanish;

d) barcha kasbiy guruhlar, sinflar va/yoki kichik sinflar uchun TMR talablarining maqbulligi;

e) malaka darajalari iyerarxiyasining mehnat taqsimoti tuzilmasi va O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga muvofiqligi;

f) TMR malaka darajalarining kasbiy faoliyat parametrlari orqali tavsiflanishi;

g) malaka darajalarining tavsiflanishi barcha foydalanuvchilar uchun tushunarli.

13. TMR davlat organlari va tuzilmalari, ish beruvchilar va ularning birlashmalari, ta'lim tashkilotlari, uyushmalar hamda fuqarolar uchun mo'ljallangan bo'lib, quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

a) mehnat bozori va muayyan sohada kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning umumiy strategiyasini ishlab chiqish, shu jumladan, kasbiy faoliyat jarayonida zarur malakaga ega bo'lish imkoniyati orqali uzluksiz professional rivojlanishni ta'minlash, kasbiy o'sish yo'nalishlarini aniqlash, malaka darajasini oshirish va uni tan olishni tashkil etish; b) kasbiy va oliy ta'lim tashkilotlari, kasbiy ko'nikmalar markazlari, nodavlat kasb-hunarga o'qitish ta'limi tashkilotlari, qayta tayyorlash va malaka oshirish tashkilotlari tomonidan foydalaniladigan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, xodimlar va bitiruvchilarning malakasiga qo'yiladigan talablarni tavsiflash; d) sertifikatlashtirish tizimini shakllantirish; e) inson resurslarini rejalashtirish va rivojlantirish.

TARMOQ MALAKA RAMKASINI ISHLAB CHIQISH TARTIBI

14. TMR O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda ishlab chiqiladi. TMR Milliy malaka ramkasiga muvofiq iyerarxik tarzda tuzilgan malaka darajalarini o'z ichiga oladi.

Zarur hollarda malaka darajalari ichida sohaga oid talablarning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi quyi darajalar va/yoki qism daraja ajratib ko'rsatilishi mumkin.

TMRni ishlab chiqish, muhokama qilish, ekspertizadan o'tkazish, tasdiqlash va joriy etish ilovadagi sxema asosida amalga oshiriladi.

15. TMRni ishlab chiqish tartibi quyidagi ketma-ketlikni o'z ichiga oladi:

Tarmoq kengashlari tomonidan TMRni ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruhlarini shakllantirish;

Tarmoq kengashlarida tuzilgan ishchi guruhlar tomonidan TMR loyihasini ishlab chiqish;

Tarmoq kengashlari tomonidan TMR loyihasini jamoatchilik muhokamasiga qo'yish;

Muhokama natijasi bo'yicha berilgan takliflar asosida TMRni qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish;

Institutga Tarmoq kengashlari tomonidan TMR loyihasini xulosa olish uchun kiritish;

Institutda TMR loyihasini ekspertizadan o'tkazish va xulosa berish;

Tarmoq kengashi tomonidan TMRni tasdiqlash va Institutga taqdim etish;

TMRni reyestrda MMTning yagona raqamli platformasiga kiritish.

16. Tarmoq kengashlari tomonidan TMRni ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruhlar shakllantiriladi. TMRni ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruhga yirik ish beruvchilar, ta'lim sohasi vakillari, kasbiy uyushmalar, kasaba uyushmalari, malakani baholash markazlari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari vakillari, mustaqil ekspertlar va boshqalar kiritilishi mumkin.

TMRni ishlab chiqish jarayonida ishtirok etuvchilarning kamida 50 % xususiy sektor vakillaridan iborat bo'lishi zarur.

TMR ishlab chiqish jarayonini samarali amalga oshirish maqsadida sohani rivojlantirish strategiyasi, kasb va lavozimlarning o'ziga xos xususiyatlari va

malaka talablari bo'yicha chuqur bilim va tajriba ega bo'lgan mutaxassislar ishchi guruhga jalb etiladi.

Ishchi guruhlar tarmoqning muayyan sohasidagi korxonalarning turli darajadagi eng tajribali va yuqori malakali xodimlari orasidan tuziladi.

TMRni ishlab chiqishda javobgarlik va samaradorlikni ta'minlash maqsadida, tarmoqqa birlashtirilgan sohalardan kelib chiqib, har bir soha bo'yicha alohida ishchi guruh shakllantirilishi tavsiya etiladi.

Ushbu ishchi guruhlar tarmoqning muayyan sohasi bo'yicha TMRni ishlab chiqish uchun mas'uliyatni o'z zimmlariga olishlari kerak.

Shakllantirilgan ishchi guruhlar tarkibi va ularning ish rejalari tarmoq kengashi raisi (yoki TMR ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan vazirlik va idora) tomonidan tasdiqlanadi.

Ishchi guruh a'zolaridan ishchi guruh rahbari va moderator tayinlanadi.

Ishchi guruhga dastlab tarmoq (soha) doirasida ish beruvchi tashkilot (korxona)larni tahlil qilish, ya'ni bugungi kundagi mehnat bozorini prognozlashtirish vositalari va metodologiyalari tarmoq kengashlari belgilagan mutaxassislar tomonidan o'rgatiladi.

Ishchi guruhlarning asosiy vazifasi muayyan soha bo'yicha TMR loyihasini belgilangan tartibda ishlab chiqish va tasdiqlash uchun tarmoq kengashiga taqdim etishdan iborat.

Ishchi guruh tegishli sohadagi barcha manfaatdor tomonlarning taklif va e'tirozlarini ko'rib chiqib, TMRni mukammal shakllantirishni ta'minlaydi.

17. Tarmoq kengashlarida tuzilgan ishchi guruhlar tomonidan TMR loyihasini ishlab chiqish jarayoni quyidagilardan iborat bo'ladi:

tarmoq (soha) tahlilini o'tkazish;

kasbiy faoliyat sohalari (turlari) va ular bo'yicha tavsiya etiladigan dolzarb kasblar (lavozimlar) ro'yxatini shakllantirish;

yangi ishlab chiqiladigan kasbiy standartlar sonini belgilash;

kasbiy faoliyat sohalari (turlari) bo'yicha bilim, ko'nikma, mas'uliyat

va mustaqillikning dastlabki tavsifini ishlab chiqish;

tarmoqning funksional xaritasini ishlab chiqish.

18. Kasbiy faoliyat sohalari (turlari), shuningdek, asosiy va tarmoqlararo kasblar (lavozimlar)ni aniqlash hamda tarmoq (soha) haqida ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida tarmoq tahlili o'tkaziladi.

Tarmoq tahlilida mazkur sohada amalga oshirilgan hamda rejalashtirilgan ishlar yoritiladi. Xususan:

tarmoq (soha)dagi korxona va tashkilotlar, ishlab chiqarish mahsulotlarining (ko'rsatilayotgan xizmatlar) ko'rsatkichlari va rivojlanish istiqbollari;

tarmoqqa (sohaga) tegishli kasblar (lavozimlar) bo'yicha kadrlar tayyorlash yuzasidan rivojlangan davlatlar tajribalari, mahalliy kadrlar tayyorlash tizimining tahlili, tarmoq uchun kadrlar tayyorlashda ishtirok etuvchi oliy va kasbiy ta'lim

muassasalari, ish beruvchi tashkilotlar va sh.k. haqidagi ma'lumotlar keltiriladi.

Tarmoq tahlili yondashuvini tarmoq ishchi guruhlarining a'zolari tanlaydi. Yondashuvlar har xil bo'lishi mumkin, masalan, ekspert yondashuvi, funksional tahlil va boshqalar.

19. Tarmoqni tahlil qilish jarayonida quyidagi asosiy ma'lumotlarni shakllantirish zarur:

tarmoqning hajmi (faoliyat ko'lami), umumiy xususiyatlari va rivojlanishining asosiy yo'nalishlari;

tarmoqdagi asosiy ish beruvchilar ro'yxati, shu jumladan, yirik korxonalar hamda o'rta va kichik biznes tashkilotlari;

manfaatdor tomonlar ro'yxati: turli kasblar (lavozimlar)dagi xodimlar, uyushmalar, ushbu tarmoq uchun kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari vakillari va boshqalar;

tarmoqdagi kasbiy faoliyat turlari va yo'nalishlari;

tarmoqqa oid kasblar bo'yicha mehnat bozorining asosiy ehtiyojlari va o'ziga xos xususiyatlari;

Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish uchun asos qilib olingan normativ hujjatlar, qarorlar, konsepsiyalar, standartlar va nizomlarning ro'yxati hamda tahlili;

tarmoqqa oid kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlash, ishga qabul qilish, ishchi-xodimlarning martaba darajalarini o'sishi haqida ilg'or xorijiy tajribalar.

20. Tarmoq tahlili jarayoniga kasblar (lavozimlar) yangilash, yangi paydo bo'layotgan kasblar (lavozimlar)ni kiritish va eskirgan kasblar (lavozimlar)ni chiqarib tashlash kabilar bo'yicha takliflar tayyorlash ham kirishi mumkin.

Tarmoq tahlili uchun axborotlarni to'liq va sifatli to'plashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

ochiq ommaviy manbalar;

milliy va xorijiy soha ekspertlari va maslahatchilari bilan dastlabki muhokamalar;

turli tarmoqqa oid konferensiyalar va boshqa ixtisoslashtirilgan tadbirlar.

Tahlil amalga oshirilgandan so'ng TMRning "Umumiy ma'lumotlar" va "Tarmoq malaka ramkasining pasporti" hamda "Tarmoq tahlili" bo'limlari shakllantiriladi.

21. Kasbiy faoliyat sohalari (turlari) bo'yicha tavsiya etiladigan dolzarb kasblar (lavozimlar) ro'yxatini aniqlash uchun tarmoqning yetakchi mutaxassislari xulosalarini inobatga olgan holda mehnat bozori ehtiyojlari (tahlili) asosida Mashg'ulotlar milliy klassifikatori, tarmoq tashkilotlarining shtat jadvallari va tarmoq tarif malaka ma'lumotnomalaridan foydalanish mumkin.

22. TMR ni ishlab chiqishda inklyuzivlik tamoyili, yoshlar, ayollar hamda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash nazarda tutiladi.

23. Tarmoq kengashi tomonidan 2025-2026-yillar mobaynida yangi ishlab chiqilishi rejalashtirilgan kasbiy standartlar to'g'risidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-345-son qarori 6-ilovaga muvofiq ko'rsatiladi. Keyingi yillar bo'yicha yangi ishlab chiqiladigan kasbiy standartlar tarmoq kengashi tomonidan belgilanadi.

24. TMR kasbiy faoliyat parametrlari orqali aniqlanadigan malaka darajalari va/yoki quyi darajalari xususiyatlarini shakllantiradi. Masalan, mustaqillik, mas'uliyat, bajariladigan ishning murakkabligi, tashkilotchilik, tahliliy yoki ijodiy ko'nikmalar va boshqa malaka, ko'nikma va bilimlar.

TMRning malaka darajalarini belgilashda Mashg'ulotlarning milliy klassifikatoridagi kasblar (lavozimlar)ning darajalari haqidagi ma'lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

TMR malaka darajalari bo'yicha malaka talablari (bilim, ko'nikma, mas'uliyat va mustaqillik)ning dastlabki tavsifi unga erishish nuqtayi nazaridan tavsiflanadi (bunda MMR talablari va ta'riflari asos qilib olinadi).

Ushbu tavsiflar har bir malaka darajasi yoki uning qism darajasi uchun soha kasblari xususiyatlarini inobatga olgan holda aniqlashtirilib boriladi.

TMRning har bir darajasida bilim, ko'nikma va shaxsiy hamda kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablarni kasbiy faoliyat sohasida amalga oshiriladigan mehnat faoliyatining mustaqilligi, mas'uliyati va bajariladigan vazifalarning murakkabligini hisobga olib tavsiflash tavsiya etiladi.

25. Tarmoqqa (soha) tegishli kasblar (lavozim) asosida funksional xaritasi ishlab chiqiladi. Tarmoqning funksional xaritasi butun tarmoq, alohida guruhlar, sinflar va/yoki kichik sinflar uchun tuzilishi mumkin.

Tarmoqning funksional xaritasi quyidagi bosqichlarda ishlab chiqiladi:

sohadagi asosiy faoliyat turlari (kasblar va lavozimlar)ning dastlabki ro'yxatini tuzish va ularning boshqa sohalar bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash (faoliyat turlari (kasblar va lavozimlar)ning dastlabki ro'yxatini normativ-huquqiy hujjatlarning tahlili, ish beruvchilar va ekspertlar orasida o'tkazilgan so'rovlar orqali aniqlash mumkin;

tarmoqdagi kasbiy faoliyat sohasiga tegishli kasblarni TMRdagi mos malaka darajalariga biriktirish;

tarmoqdagi kasbiy faoliyat sohasiga tegishli kasblarni malaka darajalari bo'yicha kasbiy o'sish yo'llarini ishlab chiqish.

26. Tarmoqning funksional xaritasi quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi:

mazkur soha uchun o'ziga xos bo'lgan kasblarni ajratish, eskirgan va yangi, shuningdek, soha uchun dolzarb bo'lgan kasblarni aniqlash;

turli kasblarning o'zaro bog'liqligini ham soha ichida, ham boshqa sohalar bilan ko'rsatib berish;

har bir kasbning kasbiy faoliyat turi doirasida gorizontal va vertikal yo'nalishlarda uzluksiz professional rivojlanish yo'llarini yoritib berish;

TMRga muvofiq malaka darajalari bo'yicha kasblar (lavozimlar)ni taqsimlash.

Shu tariqa, tarmoqning funksional xaritasi sohada kasbiy rivojlanish uchun yo'riqnoma vazifasini bajaradi.

Tarmoqning funksional xaritasi ishchi guruhlarining chuqur ilmiy va asoslangan tahlillari va muhokamalaridan so'ng kelishuv asosida tuziladi. Ishchi guruhning vazifasi funksional xaritada tarmoqning barcha o'ziga xos kasblarini TMRdagi malaka darajalariga muvofiq ravishda taqsimlashdan iborat.

Tarmoqning funksional xaritasi tahlillari asosida bir nechta TMR yaratilishi mumkin.

27. TMRning loyihasi ishlab chiqilgandan so'ng o'n kun muddatga Tarmoq kengashiga mas'ul vazirlik yoki idora o'zining rasmiy veb-saytiga uni jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish uchun joylashtiradi.

TMR loyihasining jamoatchilik muhokamasida davlat va xususiy ish beruvchilar uyushmalari, birlashmalari, kadrlar tayyorlash tizimi tashkilotlari va boshqa manfaatdor tomonlar hamda fuqarolar ishtirok etishi mumkin.

TMR loyihasining jamoatchilik muhokamasi belgilangan vaqt doirasida xolis va shaffof o'tkazilishi Tarmoq kengashi hamda TMRni ishlab chiqishga mas'ul tashkilot zimmasiga yuklanadi.

Muhokama jarayonida bildirilgan taklif va e'tirozlar Tarmoq kengashi tomonidan ishchi guruhga taqdim etiladi.

28. Ishchi guruhlar jamoatchilik muhokamasi natijalarini inobatga olgan holda uch kun muddatda TMRning yakuniy loyihasini takomillashtiradi va takomillashtirilgan TMR loyihasini Institutga xulosa olish uchun taqdim etadi.

29. Tarmoq kengashi Institutga TMR loyihasini ekspertizadan o'tkazish uchun bir kun muddatda elektron va qog'oz ko'rinishda taqdim etadi.

TMR loyihasi Institut tomonidan ekspertizadan o'tkaziladi. Institutda TMR ni ekspertizadan o'tkazish uchun ekspertlar guruhi tuziladi.

Ekspertlar guruhi tarkibiga Institut xodimlari, soha bo'yicha tajribali va malakali mutaxassislar, yetuk olimlar jalb etiladi.

TMRning ekspertizasi belgilangan vaqt doirasida xolis va shaffof o'tkazilishi Institut zimmasiga yuklanadi.

30. Taqdim qilingan TMR loyihasi Institutda o'n kun muddatda ekspertizadan o'tkaziladi.

Ekspertizada quyidagi mezon va talablarga TMR loyihasining muvofiqligi tekshiriladi:

TMRning shakliga mos kelishi;

belgilangan tartibga muvofiq rasmiylashtirilishi;

TMRning mazmuni tarmoq (soha)ning barcha iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab olganligi;

Tarmoq malaka ramkasi malaka darajalarining tavsifida MMR va TMR malaka darajalari, bilim, ko'nikma, mas'uliyat va mustaqillik ko'rsatkichlarining o'zaro mutanosibligi;

funksional xaritada kasbiy rivojlanish yo'llarining gorizonta va vertika holatda joylashganligi;

Ekspertizadan o'tgan TMR loyihasiga ekspertiza xulosasi rasmiylashtiriladi.

TMR nomi qaysi soha yoki yo'nalish uchun mo'ljallangan bo'lsa, o'sha sohaning nomi bilan ataladi.

Tarmoq kengashlariga ekspertizadan ijobiy baholangan TMR uchun Institut tomonidan xulosa taqdim etiladi.

31. Institut tomonidan ijobiy xulosa taqdim etilgan TMR loyihasini Tarmoq kengashi besh kun muddatda tasdiqlaydi.

32. Tarmoq kengashi tomonidan tasdiqlangan TMR bir kun muddatda ikki nusxada Institutga ro'yxatdan o'tkazish uchun yuboriladi.

Institut bir kun ichida TMRni tegishli reyestrqa kiritadi va o'zining rasmiy veb-saytiga joylashtiradi.

Reyestr quyidagi axborotlarni o'z ichiga oladi:

TMRning qayd raqami;

TMRning nomi;

Tarmoq kengashining TMRni tasdiqlash haqidagi qarori rekvizitlari;

(sana va raqam);

TMRni joriy qilish sanasi.

Institut TMRni tegishli reyestrqa kiritgandan keyin bir nusxasini Tarmoq kengashiga va tasdiqlangan TMRlar ro'yxatini Respublika kengashiga yuboradi.

TMR reyestrqa kiritilgandan so'ng Institutning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi. Institut va Tarmoq kengashining rasmiy veb-saytida e'lon qilingan vaqtdan e'tiboran TMR kuchga kirgan hisoblanadi.

TMR Tarmoq kengashi va korxonalarning rasmiy veb-saytida o'zbek, ingliz va rus tillarida e'lon qilinishi mumkin.

TARMOQ MALAKA RAMKASINI RASMIYLASHTIRISH

33. TMR shakliga muvofiq rasmiylashtiriladi.

34. TMRni rasmiylashtirishda loyihaning matni A4 o'lchamdagi qog'oz varag'ida matnini kamaytirmasdan joylashtirilishi kerak. Sahifaning tartib raqami sahifaning pastki o'ng qismida joylashtirilishi kerak. Sahifalar 3 raqamidan boshlab raqamlanadi.

TMR qoida tariqasida, "Microsoft Word" matn muharriridan va quyidagi parametrlardan foydalangan holda tayyorlanadi:

"Calibri" "14" o'lchamli shrift;

Sahifaning chap hoshiyasi 3 sm, o'ng hoshiyasi 1,5 sm, yuqori va past hoshiyalari 2 sm;

qatorlar orasidagi interval 1 belgi;

TMR boblari nomidan so'ng matn 1 interval oralig'i bilan ajratiladi.

35. TMRda uni ishlab chiqishda qatnashgan ishchi guruh vakillari ishtirok etgan tashkilot (korxona) nomi, jumladan, ishlab chiqishda ishtirok etgan davlat idoralari, ta'lim muassasalari, sanoat tashkilotlari va xususiy sektor vakillarining barchasi TMRni ishlab chiquvchilar yoki muddatiga ko'ra yangilashda ishtirok etganlar ro'yxatida ko'rsatilishi kerak.

36. TMRda ishlab chiqilgan vaqti ko'rsatiladi. Odatda TMRning amal qilish muddati 3 yil hisoblanadi. Tarmoqning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, zarurat tug'ilganda TMR belgilangan muddatdan oldin yangilanishi mumkin.

37. Ushbu metodologiyaga belgilangan tartibda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi.

38. TMRning sifatli va o'z vaqtida ishlab chiqilishi hamda amaliyotga joriy etilishiga Tarmoq kengashi raisi javobgar hisoblanadi.

39. TMRni belgilangan tartibda ishlab chiqishni ta'minlamagan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Tarmoq kengashi	Tarmoq kengashlari tomonidan TMR loyihasini jamoatchilik muhokamasiga qo'yish	o'n kun
2-bosqich	TMR ishchi guruhi	Muhokama natija bo'yicha berilgan takliflar asosida TMRni qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish	uch kun
3-bosqich	Tarmoq kengashi	Tarmoq kengashlari TMR loyihasini Institutga xulosa olish uchun kiritish	bir kun
4-bosqich	Institut	Institutda TMR loyihasini ekspertizadan o'tkazish va xulosa berish	o'n kun
5-bosqich	Tarmoq kengashi	Tarmoq kengashi tomonidan TMRni tasdiqlash	beshtun
6-bosqich	Tarmoq kengashi	Tasdiqlangan TMRni Institutga ro'yxatdan o'tkazish uchun yuborish	bir kun
7-bosqich	Institut	TMRni reyestrda kiritish	bir kun

Tarmoq malaka ramkasi shakli

“TASDIQLAYMAN”

_____ sohasida kasbiy malakalarni
rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi raisi

“___” _____ 202__-yil

(Tarmoq malaka ramkasining nomi)

TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

QR kod

1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Izoh.

Tarmoq va tarmoq malaka ramkasi to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar, Tarmoq malaka ramkasining asosiy maqsadi, vazifasi, asosiy tushunchalar va atamalar kiritiladi. Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqishga asos bo'lgan Qonunlar, qarorlar, normativ hujjatlar ham qayd etiladi.

2. Tarmoq malaka ramkasining pasporti

Soha (tarmoq) ning tavsifi:

Izoh.

TMR ishlab chiqilayotgan soha (tarmoq) uchun umumiy holda qisqacha tavsif beriladi.

_____ sohasidagi tarmoq malaka ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan.

Seksiya nomi:

Izoh.

Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1) ga muvofiq soha (tarmoq)ga tegishli seksiyalar yoziladi.

O'zbekiston Respublikasida _____ sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi.

T/r	Seksiya	Bo'lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1.					
2.					
3.					
...					

Izoh.

Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1) ga muvofiq soha (tarmoq)ga tegishli seksiya, bo'lim, guruh, sinf, kichik sinflar keltiriladi.

TMR quyidagi kasbiy faoliyat turlari va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

T/r	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1.		
2.		
3.		
...		

Izoh.

Soha (tarmoq) ga tegishli kasbiy faoliyat va mashg'ulotlar guruhlarini Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) dan olinadi.

3. Tarmoq tahlili

Tarmoqda milliy malakalar tizimini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan hamda rejalashtirilgan ishlar yoziladi, xususan:

– tarmoqning korxona va tashkilotlari, ishlab chiqarish mahsulotlari (ko'rsatilayotgan xizmatlari) holati, quvvati, ehtiyojlari va rivojlanish istiqbollari ko'rsatiladi;

– tarmoqqa tegishli kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlash yuzasidan rivojlangan davlatlar tajribalari, mahalliy kadrlar tayyorlash tizimining tahlili, tarmoq uchun kadrlar tayyorlab beruvchi oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari, ish beruvchi tashkilotlar haqidagi ma'lumotlar keltiriladi.

4. Tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) ga muvofiq tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati quyidagi jadvalda keltiriladi:

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
1.		
2.		
...		

Izoh.

Tarmoqqa tegishli kasblar Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) asosida ajratiladi hamda jadvalga muvofiq malaka darajasi bo'yicha kamayish tartibida (tarmoqdagi eng yuqori lavozim (kasb) dan eng quyi lavozim (kasb)ga qarab) ko'rsatiladi.

5. Yangi ishlab chiqilishi rejalashtirilgan kasbiy standartlar haqida ma'lumot

T/r	Kasbiy standartlar soni	Qamrab olinadigan lavozim (kasb)lar soni	Ishlab chiqiladigan yil va oy
1.			
2.			
...			

Izoh.

Tarmoq kengashi tomonidan 2025-2026-yillar mobaynida yangi ishlab chiqilishi rejalashtirilgan kasbiy standartlar to'g'risidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi 345-son qaroriga muvofiq ko'rsatiladi. Keyingi yillar bo'yicha rejalar tarmoq kengashi tomonidan belgilanadi.

6. Tarmoq malaka ramkasi malaka darajalarining tavsifi*

Malaka darajasi		Bilim	Ko'nikma (mahorat)	Mas'uliyat va mustaqillik	Kasbiy faoliyat turlari va lavozim (kasb)lar kodi hamda nomi
Milliy malaka ramkasi (MMR)	Tarmoq malaka ramkasi (TMR)				
1					
2					
3					
4					
5					
6					
7					
8					

**) Milliy malaka ramkasi asosida malaka darajalari, bilim, ko'nikma (mahorat), mas'uliyat va mustaqillik, iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichidagi faoliyat tur (sinflari) hamda ushbu faoliyat turiga mos Mashg'ulotlarning milliy klassifikatoridagi (MMK-2025) kasblarning (lavozim) kodlarini o'z ichiga olgan Tarmoq malaka ramkasi jadvalga muvofiq to'ldiriladi.*

7. Tarmoqning funksional xaritasi*

MMR malaka darajasi	TMR malaka darajasi	Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichidagi kasbiy guruhlariga oid faoliyat turi (sinflar)				Tegishli kasblar
		Mashg'ulotlar guruhi	Mashg'ulotlar guruhi	Mashg'ulotlar guruhi	...	
8						
7						
6						
5						
4						
3						
2						
1						

*) Tegishli kasblar bo'yicha xodimning vertikal va gorizontal tarzda martabasining o'sishi ko'rsatiladi.

8. Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxona)lar to'g'risida ma'lumot

T/r	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot		Imzo
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi	
1.			
2.			
3.			
...			

Izoh.

Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilotlarning nomi (ish beruvchilar vakillari kamida 50%, davlat idoralari, ta'lim muassasalari va boshqalar) hamda ishlab chiqishda ishtirok etgan xodimlarning F.I.O. va lavozimi ko'rsatiladi.

Mazkur Tarmoq malaka ramkasi _____tarmoq kengashining "___" _____ 202__-yildagi _____-son yig'ilishida muhokama qilingan.

Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining "___" _____ 202__-yildagi _____-son xulosasi.


This image shows a single sheet of white paper with horizontal blue ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page. There are no margins, text, or other markings on the paper.

This image shows a single page of white paper with horizontal blue ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page. There are no margins, text, or other markings on the paper.

This image shows a single sheet of white paper with horizontal blue ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page. There are no margins, text, or other markings on the paper.



MILLIY MALAKA TIZIMINI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI



Tarmoq malaka ramkasini
ishlab chiqish va yangilash
metodologiyasi

Aloqa



+99855-516-54-53



info@mmtri.uz



Talabalar ko'chasi, 5/1
100095, Toshkent shahri,
O'zbekiston

